



## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИДА О'YIN FAOLIYATINI TASHKIL QILISH

*Ergasheva Ba'rno Ziyavitdin qizi*

*Nizomiy nomidagi TDPU maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasи o'qituvchisi*

*Abduvaliyeva Elmira Tolib qizi*

*Nizomiy nomidagi TDPU maktabgacha ta'lim fakultetining 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda o'yin faoliyatidan foydalanish va uning ahamiyati haqida aytib o'tilgan. Shuningdek, ta'lim tashkilotida foydalaniladigan o'yin turlari , qayday vaqtarda tashkil etish va ulardan yosh guruhlarida foydalanish haqida so'z yuritilgan.

**Annotation:** This article talks about the use of game activities in preschool education and its importance. Also, the types of games used in the educational organization, organization at regular times and their use in age groups are discussed.

**Абстрактный:** В данной статье говорится об использовании игровой деятельности в дошкольном образовании и ее значении. Также обсуждаются виды игр, используемые в образовательной организации, организация режима работы и их использование в возрастных группах.

**Kalit so'z:** o'yin, ta'lim, tarbiya, shakl, tur, tashkil qilish, yosh guruhlari , ta'lim tashkiloti, tarbiyalanuvchi , tarbiyachi , muhit.

**Key word:** game, education, training, form, type, organization, age groups, educational organization, pupil, educator, environment.



**Ключевое слово;** игра, образование, обучение, форма, тип, организация, возрастные группы, образовательная организация, воспитанник, воспитатель, спреда

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida o'yin faoliyatidan foydalanish juda muhim. Chunki o'yin bolalarning tabiiy ehtiyoji bo'lib, ular orqali atrof-muhitni o'rghanadilar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Quyida o'yin faoliyatining asosiy ahamiyatlari keltirilgan:

-bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish. O'yin jarayonida bolalar ranglar, shakllar, sonlar, harflar va boshqa tushunchalarni o'rghanadilar.

-ijodiy fikrlashni shakllantirish. Rolli va konstruktiv o'yinlar bolalarning tasavvurini kengaytiradi, mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

-muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish. Guruh bo'lib o'ynash bolalarni bir-biri bilan muloqot qilishga, hamkorlikka va jamoaviy ishlashga o'rgatadi.

-ijtimoiy moslashuvni yaxshilash .O'yin davomida bolalar o'z huquq va majburiyatlarini tushunadilar, muloqot qoidalariga rioya qilishni o'rghanadilar.

-harakat va jismoniy rivojlanish. Harakatli o'yinlar bolalarning motorika, muvozanat va umumiy jismoniy rivojlanishiga yordam beradi.

-xotira va diqqatni rivojlantirish. O'yin qoidalarini eslab qolish va unga rioya qilish orqali xotira va diqqat mustahkamlanadi.

Bolalar o'yin faoliyatining yana bir xususiyati bu o'yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollarning ko'pincha umumiylig xarakteriga ega bo'lishidir. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi cheklangan kichik yoshdagি bolalar (ba'zan kichik guruh bolalari ham) o'zlarining o'yinlarida konkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar xolos. Masalan, (oyisini, dadasini,



akasird, tarbiyachisini va shu kabilami). O'rta yoki katta bog'cha yoshidagi bolalarning o'yinlarida esa bunday obrazlar umumiylilik xarakteriga ega bo'la boshlaydi. Ta'llim tashkilotida o'yinlarni turli vaqtarda tashkil qilish mumkin. Masalan, mashg'ulotlar mobaynida , sayr jarayonida , qabul jarayonida tashkil qilish mumkun. O'yinlar ma'lum bir maqsadga qaratilgan bo'ladi ya'ni bolalar o'yin davomida yangi bilim va ko'nikmalarini egallashi kerak .

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar odatda o'zлari yolg'iz o'ynaydilar. Predmetli va konstruktorli o'yinlar orqali bu yoshidagi bolalar o'zlarining idrok, xotira, tasavvur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar. Syujetli-rolli o'yinlarda bolalar, asosan, o'zлari kimnidir ko'rayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti-harakatlarini aks ettiradilar. 4-5 yoshli bolalaning o'yini asta-sekinlik bilan jamoa shakliga ega bo'lib boradi. O 'z o'yinlarida bolalar kattalarning predmetlarga munosabatinigina emas, balki ko'proq ulaming o'zaro munosabatlarini ham aks ettiradilar va ularga talid etadilar. Shuningdek, jamoa o'yinlarida bolalar bir guruh odamlarning miirakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar. Masalan, "poezd" o'yinini olaylik. Bunda parovozga ko'mir yoquvchi, provodniklar, kontrolyor, kassir, stansiya xodimlari va yo'lovchilar bo'ladi. Bolalarning mana shu kabi jamoa o'yinlari artistlarning faoliyatiga o'xshaydi. Chunki, jamoa o'yinidagi bar bir bola o'z rolini yaxshi ijro etishga intillishi bilan birga o'yining umumiyligi mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa har bir boladan o'zining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi. Ma'lum rollarga bo'lingan jamoa o'yini, bolalardan qat'iy qoidalarga bo'ysunishini va ayrim vazifalami talab doirasida bajarishni taqozo etadi. Shuning uchun bolalaming bimday jamoa o'yinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki, bunday o'yinlar bolalarda irodaviylik, xushmuomalalik, o'yin qoidalariiga, tartib-intizomga bo'ysungan va shu kabi boshqa ijobiy hislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi. Katta bog'cha yoshida syujetli-rolli o'yinlar esa o'z mavzusining boyligi va xilma-xilligi bilan farqlanadi. Bu o'yinlar jarayonida bolalarda sardorlik xususiyati yuzaga kela boshlaydi, ularda tashkilotchilik ko'nikma va malakalari rivojlnana boshlaydi.



Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun turli xil o‘yinlardan foydalanaladi. Ularni quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

1. Didaktik o‘yinlar (o‘qitish va bilim berish uchun) Bu o‘yinlar bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirishga yordam beradi. "Rang va shaklni top" –bolalar turli shakl va rangdagi predmetlarni ajratishadi. "Ortib qolgan rasm" – suratdagi yetishmayotgan detallarni topish. "Nimani eshitding?" – turli tovushlarni eshitib, nima ekanligini topish.
2. Rolli o‘yinlar (ijtimoiy muhitga moslashish uchun) Bu o‘yinlar bolalarni ijtimoiy rollarga o‘rgatadi. "Do‘kon" – savdo qilish va mijoz bo‘lishni o‘rganish. "Shifokor va bemor" – tibbiyot xodimlari faoliyatini tushunish.
3. Harakatli o‘yinlar (jismoniy rivojlanish uchun) Bu o‘yinlar bolalarning motorikasi va jismoniy faolligini oshiradi. "Qopqonga tushma" – to‘r yoki arqon ostidan egilib o‘tish. "Toshbaqa va quyon" – sekin va tez yugurish o‘yini. "O‘yinchoqni olib kel" – yugurib, belgilangan joydan o‘yinchoqni olib kelish.
4. Konstruktiv o‘yinlar (ijodiy fikrlash va muhandislik qobiliyatlari uchun) Bolalar qurish va loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. "Konstruktor bilan quramiz" – legolardan turli narsalar yasash. "Qum va suv bilan tajriba" – qum va suv yordamida shakllar yasash.
5. Stol-usta o‘yinlari (mantiqiy fikrlash va diqqatni oshirish uchun) "Domino" – ranglar va shakllarni moslashtirish. "Lotto" – Rasm yoki so‘zlarni moslashtirish orqali yutish. "Kim ortiqcha?" – Suratlardagi ortiqcha buyumni topish.
6. Musiqali va ritmik o‘yinlar (eshitish qobiliyatini rivojlanirish uchun) "Qo‘sish aytyp raqs tushamiz" – musiqa ostida raqs qilish. "Ritmni top" – ma’lum bir ritmni takrorlash. "Qaysi musiqa bu?" – turli ohanglarni eshitib, farqlash.

**Xulosa** qilib aytganda , o‘yinlar bolaning yosh xususiyatlariga mos tanlansa, ularning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishiga katta foyda beradi. Shu sababli,



maktabgacha ta’lim muassasalarida har xil turdag'i o‘yinlardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin faoliyatidan foydalanish bolalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilishi kerak. Har bir yosh guruhida o‘yinlarning turlari, mazmuni va murakkablik darajasi farqlanadi. Har bir yosh guruhida bolalarning qobiliyat va qiziqishlariga mos o‘yinlar tanlansa, ularning har tomonlama rivojlanishi ta’minlanadi. Shuning uchun tarbiyachilar o‘yinlarni bolalarning yoshiga va ehtiyojlariga qarab tanlashlari lozim. O‘yinlar tashkil qilishdan avval bolalarga nazariy jihatdan ma’lumot berilib ularning bilimlari mustahkamlanadi. Tarbiyachi tomonidan o‘yin tashkil qilinadigan joy ko’zdan kechiriladi va xavfsizligi nazorat qilinadi. Shuningdek, tarbiyachi o‘yinlarni ularning turlariga qarab ma’lum bir vaqt oralig’ida tashkil qilishi kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1.SH.A.Sadikova “Maktabgacha pedagogika” “Tafakkur bo’stoni” nashryoti

Toshkent-2013-yil

2. Z.T.Nishanova,G.K.Alimova,A.G’.Turg’unboeva,M.X.Asranboeva “Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi” Toshkent 2017-yil 89-91-betlar

3.pedagoglar.org

4.www. ziyonet

5. scientific-jl.org